

OLIY TA`LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK MOBILLIK TIZIMINI QO`LLASHNING MAZMUNI HAMDA MAQSAD VA VAZIFALARI

Xaitaliyeva Nasiba

Termiz Davlat Pedagogika Instituti magistri

Turamuratov U

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika kafedrasи mudiri (PhD) taqrizi asosida.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11305530>

Annotatsiya. Mazkur maqolada akademik mobillik tizimini qo`llashning pedagogik asoslari maqsad, vazifalari hamda akademik mobillikning turlari xususida so`z yuritilgan. Talabalarda akademik mobillik dasturi to`g`risida ko`nikma shakllanirish hamda uning afzalliklarini ko`rsatish masalalari haqida bazi ma`lumotlar keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: mobillik, Erasmus, akademik mobillik, nizom, xalqaro hamkorlik, xalqarolashtirish, afzalliklar.

THE CONTENT AND GOALS AND TASKS OF THE USE OF THE ACADEMIC MOBILITY SYSTEM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article talks about the pedagogical foundations of the application of the academic mobility system, the goals, tasks, and types of academic mobility. Some information about the issues of forming skills and showing the advantages of the academic mobility program for students was given.

Key words: mobility, Erasmus, academic mobility, regulation, international cooperation, internationalization, advantages.

СОДЕРЖАНИЕ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ В ВУЗАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются цель, задачи и виды академической мобильности. Была дана информация о вопросах формирования навыков и показа преимуществ программы академической мобильности для студентов.

Ключевые слова: мобильность, Эразмус, академическая мобильность, регулирование, международное сотрудничество, интернационализация, преимущества.

Kirish. So`nggi yillarda akademik mobillik, V.A.Galichinning fikriga ko`ra, inson sifatini oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida tan olingan. Global lashuvning rivojlanishi bilan mamlakatlar o`rtasida fan va ta`lim sohasidagi almashinuv tez sur`atlar bilan o`sib bormoqda. Bu mazkur yo`nalishda millatlararo hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashga, milliy ta`lim tizimlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy Yevropa ta`lim tizimining asosiy prinsipi - bu mutaxassisning shaxsiy muvaffaqiyatiga e`tibor qaratish tamoyili - insonning kasbiy o'sishini ta'minlash, uning martaba pog'onasida ko'tarilishini va iqtisodiy hayotini ta'minlashga qaratilgandir. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning asosiy sharti - bu individuallashtirish va o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshirishdir.

Ta`lim dasturlari darajasida bu modulli tuzilishga va ta`lim yutuqlarini qayd etishning moslashuvchan tizimiga o'tishni anglatadi. Tarkibiy va institutsional darajada - bir nechta muassasalarda malaka oshirish imkoniyatlarini ta'minlash va norasmiy sektorni ta`lim sohasiga

kiritish (qisqa kurslar, o‘quv markazlari, korporativ ta’lim va malakasini oshirish tizimlari) maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aynan yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalda tadbiq etish, butun dunyo ta`lim sifatini oshirish uchun akademik mobillik tizimi ishlab chiqildi va ushbu dastur asosida talabalarni turli qulay davlatlar va ilmiy salohiyati yuqori bo`lgan universitetlarda o`qitish va ularning ilmiy salohiyatini oshirish hamda dunyoqarashlarini kengaytirish maqsad qilib qo`yildi.

1. **Akademik mobillik dasturi o`zi nima? U qanday ishlaydi? Uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?** Ushbu savollar bo`yicha quyidagilarni o`rganishimiz mumkin:

- **akademik mobillik** – yaxshiroq joyda o‘zaro almashib ta’lim olish imkonini beradigan yangi tizim hisoblanadi, ushbu dastur Oliy Ta`lim Muassasalari bo`ylab o`qishni ko`chirib o`tkazish o`rniga ishlab chiqilgan samarali dastur sifatida qo`llanilmoqda.
- **akademik mobillik** – talaba yoki o‘qituvchilarning mamlakatidagi yoki xorijdagi OTMlarda kelishuv asosida ma’lum muddat o‘qish yoki dars berishini anglatadi.

Akademik mobillik dasturi asosidagi talablar asosan 2 guruhga bo‘linadi:

- **erkin harakatlanuvchilar** – bunday turdagি talabalar o‘z xohish va tashabbuslari bilan ta’lim olish uchun boshqa hududlarga borishadi;
- **dastur doirasidagi talabalar** – bunda OTMning o‘zi yoki uning biror fakulteti boshqa OTM bilan kelishgan holda talabalar uchun o‘zaro almashinuv dasturlarini amalga oshiradi.

Dasturlar milliy va xalqaro darajada ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Erasmus dasturi talaba almashinuvni imkonini beradigan mashhur dasturlardan biri. alabalar ma’lum muddat boshqa bir OTMdа o‘qishi uchun eng katta imkoniyat – talaba almashinuv dasturlari hisoblanadi. Bunda talaba o‘zi o‘qiyotgan OTM bilan hamkor bo‘lgan xorij OTMlaridan birida ma’lum muddat o‘qib



qaytishi mumkin. Bunday OTM xoh xorijda, xoh o‘z davlatida bo‘lsin talabaga yangi muhitda o‘qish imkonini beradi.

Akademik mobillik dasturlari eng qisqasi – 1 haftadan 3 oygacha, eng uzog`i – 6 oydan bir yilgacha bo‘lishi mumkinligini “Ta`lim to`g`risida” gi qonun nizomidan bilib olishimiz mukin.

Akademik mobillik dasturining afzalligi shundan iboratki: deylik, bilim sohasi o'zaro mos keladigan 2 ta oliy ta'lismuassasasi muayyan muddatda talabalarini almashgan holda o'quv jarayonini tashkil qiladi. Masalan, poytaxtlik talaba o'qishga topshirish vaqtida beshta ta'lismuassasasi yo'nalishini belgilab, Qashqadaryodagi oliygohga o'qishga kirdi. Ammo u yerda o'qish uchun uning sharoiti yo'q. Mazkur vaziyatda Toshkentda joylashgan oliy ta'lismuassasasi bilan Qashqadaryodagi oliy ta'lismuassasasi o'rtasida akademik mobillik bo'yicha kelishuv amalga oshiriladi. Ya'ni talabaning sharoiti inobatga olinib, ota-onasi bag'rida o'qishni davom ettirishi uchun unga sharoit yaratiladi. Bu oldingi bir necha yillardan beri ta'lismuhosasidagi eng yaxshi imkoniyatlardan bir desak xato qilmagan bo'lamiz.

Akademik mobillik oliy ta'lismizida yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu ta'lismuassasalarini bir-biri bilan solishtirish imkoniyati, muhim jihatlarini o'zlashtirish, joriy etish orqali oliy ta'lismifatini oshirishga xizmat qiladi. Mobillik oliy ta'lismuassasalarini tuzilmalarini, davlat ta'lism standartlari, o'quv rejalarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Shuning ushbu Akademik mobillik faqatgina Respublika Oliy Ta'lismuassasalarida emas balki Xalqaro universitetlar o'rtasida ham amalga oshiriladi. Uning ishtirokchilari talabalar, oliy ta'lismuassasalarining akademik va ma'muriy personallari bo'lishi mumkin. Aslida xalqaro mobillik global mehnat bozori sharoitida kasbiy moslashish hamda ta'lismi davom ettirish imkoniyatini beradi. Ichki akademik mobillik talaba va ularning ota-onalariga qulaylik yaratadi. Ammo ushbu dasturning ham o'ziga yarasha nizomlari mavjud bo'lib, uning muhim talablaridan biri: talabalar Oliy Ta'lismuassasida yaratilgan akademik mobillik asosida muayyan muddat davomida o'qishi mumkin. Bunda muhim talab, bilim sohalari, ta'lismuassasalarini va fanlar o'zaro mutanosib bo'lishi kerak. Shuningdek, talabalar bunda muayyan muddat o'qiganligi haqida ma'lumotni asosiy o'qishiga taqdim etadi, tegishli fanlarni o'zlashtirgan, kreditlarni to'plagan holda asosiy oliygohda tahsilni davom ettirishi mumkin.

Akademik mobillikni rivojlantirish g'oyasi quyidagilarga alohida e'tibor berib, erkin harakat yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tishni o'z ichiga oladi:

- talabalar uchun - ta'lismi va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlaridan foydalanish;
- o'qituvchilar, tadqiqotchilar va ma'muriy xodimlar uchun - Yevropada tadqiqot, o'qitish uchun foydalanilgan vaqtini tan olish hamda kredit, ularning qonun bilan belgilangan huquqlariga ziyon yetkazmaslik.

O'qituvchilar va pedagoglarning akademik mobilligini kengaytirish davlatimizning qo'llab quvvatlashi bilan mumkin. Bunday tashabbuslarning maqsadi yangi o'quv dasturlarining Yevropa tomonlarini rivojlantirish va mavzu tarmoqlarida hamkorlik qilishdir. Bunday davlat siyosati ikkinchisini taqqoslash va xalqarolashtirish orqali ta'lismifatini oshirishga yordam beradi.

Xalqaro davlat Oliy Ta'lismuassasalarini va universitetlar to'g'ridan-to'g'ri xalqaro miqyosdagi strategiyalarni ishlab chiqadilar, bu yerda ular aniq harakat qilishlari kerak bo'lgan miqdori va sifat ko'rsatkichlari ko'rsatiladi:

- hamkor universitetlar bilan qo'shma ta'lismi dasturlari soni;
- chet ellik talabalar soni;
- akademik dasturlar;
- mobillik;
- chet ellik talabalar uchun moslashish dasturlari;

- mobillik dasturlarining potensial ishtirokchilari uchun til kurslari va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda ayni vaqtida akademik mobillik dasturining Oliy ta`lim muassasalari sifatini oshirishga qo`shgan hissasi ko`zga ko`rinarli darajaga yetib ulgurdi. Akademik mobillik dasturining madsadi- talablarning chet el tarjibalarini o`rganishi, ularning madaniyatini, tilini va ularda bo`lgan yuqori bilim imkoniyatlarni o`zlashtirish va kelgusida o`z tajribalarini Respublikamiz Oliy Ta`lim muassasalarida qo`llashi bizning yutug`imiz hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ushbu tizim orqali nafaqat bizning talabalarimiz balki Respublikamizga tashrif buyurgan xorij talabalari ham bizning urf-odatlarimizni, madaniyatimizni, sharqona tariximiz va mashxur adiblarimiz dong`ini butub dunyoga yetkazishga xizmat qiladi. Oliy Ta`lim muassasalarida olib borilayotgan ushbu akademik mobillik dasturini yanada yaxshilash borasida ayni vaqtida ko`plab pedagogik ishlari, sinov-tajribalari amalga oshirilmoqda.

REFERENCES

1. Galichin, V.A. Ta'limning xalqarolashuvi sharoitida akademik harakatchanlik [Matn] / V.A. Galichin.-M.: Univer. kitob, 2009. -460 b.
2. <https://kun.uz/uz/91559801>
3. <https://lex.uz/docs/>
4. 14th-TECH-FEST-2023 International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England <https://conferencea.org> 25th May 2023 126 AKADEMIK MOBILLIK – BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA
5. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 6 – TOM 6 – SON / 2023 - YIL / 15 - IYUN www.bestpublication.org 53 УДК: 37.035.
6. AKADEMIK MOBILLIK BORASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI
7. Galichin, V.A. Ta'limning xalqarolashuvi sharoitida akademik harakatchanlik [Matn] / V.A. Galichin.-M.: Univer. kitob, 2009. -460 b.
8. <https://kun.uz/uz/91559801>
9. <https://lex.uz/docs/>